

Uslubiy vazifasiga qarab pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat: kompyuter darsliklari (darslari); mashq qilish (repetitor) dasturlari; nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari); axborot-spravochnik (ensiklopediya) dasturlar; imitatsion dasturlar; modellashtiruvchi dasturlar; namoyish qiluvchi dasturlar (slaydlar, videofilmlar); o‘quv-o‘yin dasturlari; bo‘sh vaqtlarni mazmunli o‘tkazishga yo‘naltirilgan dasturlar (kompyuter o‘yinlari: quvnoq o‘yinlar, strategik o‘yinlar, boshqariluvchi o‘yinlar, mantiqiy o‘yinlar, sport o‘yinlari va hokazo).

Shunday qilib, kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalari yordamida olingan bilim uzoq vaqt xotirada qoladi va keyinchalik ularni amaliyotda qo‘llash uchun qisqa vaqt ichida takrorlash bilan uni tiklash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.M. Qodirov, G.E. Saidova Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik masalalari. “Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo‘llash masalalari” Respublika ilmiy uslubiy konferensiyasi, Toshkent, 17-18-yanvar, 2022-yil.
2. Қосимов С.С. Ахборот технологиялари. – Т.: «Алоқачи», 2006.
3. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. –116-б.

BOSHLANG‘ICH SNFLARDA TABIIY FANNI O‘QITISHDA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Kodirov Akbar Shuxratovich

Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining “Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası assisent o‘qituvchisi

akbar2005ak@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-3656-5770>

Bozorova Feruza Shuxrat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Maxammadiyeva Iroda Abdusalom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Matematika va informatika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ta'lim tizimi keng ko'lamda o'zgarib borayotgan bir davrda, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari dars jarayonlariga zamonaviy yondoshuv asosida o'qitish va yaxshi bilim berishlari uchun AKT vositalaridan keng foydalanishlari zamon talabi bo'lib bormoqda. Darsda o'quvchilarga berilgan bilimlar va qo'llangan texnologiyalar orqali o'quvchilarni tabiatga va undagi mavjudodlarga bo'lgan mehrini ortirish, ularni avaylash va asrash kelajakga bo'lgan ishonchini ortishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fan, AKT, visual, amaliyot, tabiat, hayvonlar, diqqatini jamlashsh, videroliklar, animatsion, multimedia, xotira mashqi, qizil kitob, test dastur, innovatsion texnologiya.

Bugungi kunda nafaqat boshlang'ich ta'lim balki, butun ta'lim sohasiga axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish rivojlanib bormoqda. Ayni damda ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalana olmaslik o'ituvchilar uchun juda ko'p noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, kundalik hayotimizda duch keladigan holatlardan biri: o'ituvchilar uchun zarur bo'lgan hujjatlar (elektron yoki qog'oz shaklda) bilan ishlay olmasligi tufayli kompyuter xizmatlari markazi orqali ishlar bajarilayotgani, unda navbat kutishlar va bir qancha muammolar o'z ifodasini topmoqda. Sir emaski bunday muammolar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida ham kuzatib kelinmoqda.

Hozirgi umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, dunyo va vatanimiz ta'lim tizimi bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, erishilayotgan yutuqlar, fan olimpiadalari, ko'pgina ijobiy va salbiy jarayonlarni mushohada qila oladigan, har bir masalaga o'z munosabatini bildiradigan, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lishi kerak. Shunday ekan boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar yangi va zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijalari shu narsani ta'kidlanmoqdaki, AKT

o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. AKTning ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Hozirda boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki boshlang'ich ta'limda olingan bilimlar boshqa sinflarda olinadigan ma'lumotlarga asos bo'ladi, bu esa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Agar boshlang'ich sinfda birgina o'quvchi darsga qiziqmasdan bilim olishni xoxlamasdan savodsiz bo'lib chiqsa, kelajakda bir oila taqdiri bilimsiz inson qo'lga qarab qoladi. Shuning uchun ham o'qituvchilar har bir o'quvchini darsga ilm olishda qiziqtirishlari zarur hisoblanadi, bu o'z navbatida dars mashg'ulotlarida texnik vositalardan foydalangan holda o'quvchilarda jarayonlarni vizual shakllantirish orqali ularning xotirasida o'sha mavzuni yaxshi qolishiga sabab bo'ladi.

O'z navbatida dars jarayonida tabiiy fanni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mavzu tushuntirilganda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni tezda va oson tushunishlar yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Amaliyot jarayonlaridan boshlang'ich sinflarning tabiiy fan savodxonligi fanida o'qituvchi har doimgidek an'anaviy tarzda darsni tashkillashtirganda o'quvchilar mavzuni ko'ngildagidek tushunishlari juda qiyin holatlariga guvoh bo'lyapmiz. Masalan, tabiat yoki hayvonlar mavzusida o'quvchilar dars boshida o'zlarining diqqat e'tiborini bir narsaga 10-12 daqiqagina qarata oladi keyin esa bolalar diqqatini jamlashlari va darsni yaxshi eslab qolishlari qiyinroq bo'lib qoladi. Bu vaqtda o'qituvchi bunday holatni oldini olish va ularni fan mavzusiga qiziqтира olishlari uchun turli xil multimedialli elektron qo'llanmalardan yoki qisqagina mavzuga oid videoroliklardan foydalanishlari (imkon qadar o'qituvchilarning o'zlari ishtirokidagi rasmlar yoki videoroliklar, masalan hayvonot bo'g'idagi sayohatlar va h.k.) o'quvchilar diqqatini jamlashga va mavzuni yaxshi tushunib eslab qolishlariga yordam beradi, o'quvchilar uy vazifalarida mavzu haqida o'zlari ham boshqa ma'lumotlar qidirib ko'rishga intiladilar. Tabiiy fandagi hayvonlar mavzusini tushuntirish jarayonida ularni birgina tasavvur orqaligina emas, balki,

multimedialardan foydalanib hayvonlar haqidagi videoroliklar yoki animatsion rasmlarni ko'rsatishimiz va ularning ovozlarni eshittirish orqali o'quvchilarda mavzuni yanada aniq va ravon tushunishlariga imkon yaratamiz. Undan tashqari Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar, o'simliklar, hashoratlar boringki tabiat in'om etgan ne'matlarni asrab avaylash va ularga zarar yetkazmaslik to'grisida to'liq ma'lumotlar berib, agar tabiatga zarar yetkazilsa u kelajakda bizni qanday halokatlar kutayotgani haqida va yosh avlodni Ona tabiatga bo'lgan mehrini shakllantirishda dars jarayonida AKT vositalardan foydalanishning o'zni juda katta.

AKTdan foydalangan holda o'quvchilarga dars jarayonida topshiriq berish orqali ularning olgan bilimlarini va xotirasini sinab ko'rishimiz mumkin. Masalan, xotira mashqi sifatida uy va yovvoyi hayvonlarni aralash holatdagi 20 dan ortiq rasmlarini aralash raqamlar orqali raqamlab jadval namoish etiladi, o'quvchilar 10 soniya davomida jadvalga diqqatini qaratishlarini, keyin esa bosh jadval paydo qilinib raqamlar o'rin almashgan holda ekranga ko'rsatiladi va o'quvchilardan qaysi raqamda qanaqa uy hayvonlari birlashtirilganliklari so'raladi. O'quvchining bergan javoblari doskaga yoziladi va natija bilan solishtiriladi. Shu va shunga o'xshash kabi pedagogik metodlarni zamonaviy ko'rinishga aylantirish uchun AKT vositalaridan foydalanishning samaralari quyidagicha: bitta qo'yiladigan topshiriqning bir qancha variantlar yaratish imkoni mavjud, kam xarajat, vizuallashtirish, o'quvchilar diqqatini jalb qilish, o'quvchilarga berilgan vazifalarni bajarishga undash, bir qancha pedagogik metoqlarni qo'llash imkoni va h.k. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta'lim faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish kelajakda yosh avlodni yuqori malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli katta.

Shunday qilib, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda axborot texnologiyalar orqali tabiiy fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, boshlang'ich sinfda o'rgatish uchun AKTdan foydalanish dasturlari, o'qitish va test dasturlarini ishlab chiqish, kompyuter kurslarini rivojlantirish, masofaviy o'qitish, auditoriyalarda internet tarmoqlaridan ijobiy foydalanish samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda rivojlangan

davlatlarning ta'lim tizimidan namuna oladigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarga berilayotgan ta'limi va ularning AKTdan foydalanish orqali erishayotgan yutuqlari ko'rib, bizning ta'lim tizimda ham shunday yutuqlarga erishish yo'lida qilinayotgan sayi harakatlar besamar qolmaydi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shuxratovich, Akbar Kodirov. "The importance and advantages of using information technologies in education." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 46-50.

2. Shuxratovich, Kodirov Akbar, Choriyeva Xursanoy Xusanovna, and Mirqobilov Bekzod Abdulla o'g'li. "O'rta ta'lim maktablarning boshlang'ich ta'lim sinflarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammo, yechim va takliflar." *Journal of new century innovations* 43.4 (2023): 96-98.

3. Raxmatov Sh., Kodirov Akbar. "Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi" *pedagogs jurnali* 35.2 (2023): 157-161.

TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

O'roqova Sharofat Bahodir qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi

Dauletbaeva Mu'tabar Ikramjan qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari 2-bosqich talabasi

Hozirgi kunda ta'limni tashkil etishda ko'plab multimedia vositalaridan keng qamrovli tarzda foydalanilmoqda. Ushbu o'rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o'rganish imkonini beradi.

Multimedaning eng muhim xususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga yordam beradi. Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keldi. Multimedia lotincha — olingan bo'lib ko'p muhitli degan ma'noni anglatadi — kompyuterning matn, grafik,